

O'QITUVCHILAR O'RTASIDA KUZATILADIGAN KONFLIKTLI VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH HAMDA JAMOADA AXILLIKNI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Maxmudov Dostonbek Zokir o'gli

Oltinsoy tumani 34-sonli umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Mojarolarning kelib chiqishiga muloqotga kirishuvchilarning o'zaro birgalikda harakat qilishlariga g'ov bo'lgan va bartaraf etilmagan ma'naviy anglashilmovchiliklar sabab bo'ladi. Munosabatdagi ma'naviy anglashilmovchilik aytilgan talabning, iltimosning, buyruqning ma'nosi muloqot bog'lashgan sheriklar uchun muvofiq emasligidir. Bu hol ularning o'zaro hamjihatligi va birgalikda harakat qilishi uchun to'sqinlik qiladi.

Kalit so'zlar: konflikt, pedagoglar, ruhiy holat, bahslash, psixik jarayonlar, maqsad, psixologik muhit, sog'lom muhit, muloqot, depressiv xulq.

KIRISH

Nizo to'g'risidagi odatiy tasavvurlar ma'lum maxsus tadqiqotlar tomonidan salbiy ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi. M.Doychning ilmiy ishlarida nizolar nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularni ikki turga ajratadi: destruktiv i produktiv. Destruktiv nizoni aniqlash kundalik tasavvurlar bilan mos keladi. Aynan bu tipdagi nizo o'zaro ta'sirlashuvda xilma xillikni va fikrlarni toptalishiga olibkeladi. Destruktiv nizo ko'pincha sababga bog'liq bo'lmagan holda balki shaxsning stressga tushishiga olib keladi. Uning uchun o'ziga xos belgilar nizo sodir bo'lishiga qiziquvchilar sonining ortishi, ularning nizoli harakatlari, bir-birlariga nisbatan salbiy ustanovkaga egaliklari va bildirilayotgan fikrlarning keskinligini belgilaydi. Boshqa bir belgisi sifatida nizoda opponentning sifat va xislatlarini, o'zaro ta'sirlashuv vaziyatlarini noto'g'ri idrok etishi va sheriklarga ishonchni o'ta ortib ketish nazarda tutiladi. Bu tipdagi nizolarni hal etish ancha murakkab bo'lib, yagona yo'li ancha qiyinchilik bilan erishiladigan muros (kompromiss)

hisoblanadi. Produktiv nizoni muammo va uning yechish yuzasidan nuqtai nazarlardagi tafovutlar va shaxslar o'rtasidagi hamjihatlikning yo'qligi keltirib chiqaradi.

Pedagogik konfliktologiya rivojida ruhshunos M.M. Ribakova tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi. Muallif pedagogik jamoa ichida turli xil munosabatlarni o'rganib, "O'qituvchi-o'quvchi" ko'rinishidagi muammolarga katta ahamiyat qaratadi, maktab hayotidan mojaroli vaziyatlarni misol qilib ko'rsatadi hamda ularning asosiy sabablarini aniqlab beradi. M.M. Ribakova mazkur guruh munosabatlarini tahlil qilib, barcha mojarolarning asosiy sababchisi o'qituvchining o'zi ekanligini ta'kidlaydi. Shu munosabat bilan, o'quvchilar bilan normal munosabatni yo'lga qolyish uchun pedagog mojarolarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim degan tavsiyani ilgari suradi. Ayrim vaziyatlarda bir-birini inkor etuvchi qadriyatlar, vazifalar va maqsadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozitsiyalar antagonizmi yuzaga chiqadi. Ba'zan bu o'zaro adovatni keltirib chiqaradi va shaxslararo mojarolar sodir bo'ladi. Mojaroning ijtimoiy mohiyati turlicha va shaxslararo munosabatlar negizini tashkil etadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Masalan, mojarolar bittasi noinsoflik qilgan ikkita o'rtoqning to'qnashuvi tusini olishi mumkin. Birgalikdagi faoliyat jarayonida mojarolarning sabablari o'rnida ikki xil toifadagi determinant, ya'ni ashyoviy-amaliy kelishmovchiliklar va shaxsiypragmatik manfaatlar o'rtasidagi tafovut maydonga chiqadi.

Xarakteriga qarab pedagogik nizolar obyektiv yoki subyektiv nizolarga bo'linadi. Obyektiv nizolarga ta'limning rivojlanish jarayonida yuzaga chiqadigan real kamchiliklar va muammolar bilan bog'liq nizolar kiradi. Bu nizolar amaliy nizolar bo'lib, o'quv jarayonini rivojlantirish, ta'lim muassasasida normal «ruhiy iqlim»ni yaratish uchun xizmat qiladi. Subyektiv nizolarga o'qituvchi va o'quvchilarning u yoki bu voqelikka bo'lgan shaxsiy fikrlarining turlichaligi oqibatida vujudga keladigan nizolar kiradi. Bu nizolar tabiati bo'yicha his-tuyg'uga, hissiyotga berilish, qiziqqonlik oqibatida yuzaga chiqadi. Odatda,

bunday nizolar bir-birini ruhan ko'ra olmaydigan yoki bir-birini tushunmaydigan, yoxud tushunishni istamaydigan o'qituvchi va o'quvchilarning qarama-qarshi fikrlari oqibatida vujudga keladi. Agar pedagog o'quvchilar psixologiyasini yaxshi bilsa, uni e'tiborga olsa, o'quvchining qiziqishlarini va e'tiqodini, yoshiga xos xususiyatlarini, ilgari egallagan tajribasini inobatga olsa, uning istiqboli va qiyinchiliklari bilan hisoblashgan holda ish tutadigan bo'lsa, ma'naviy anglashilmovchiliklarni bartaraf etish mumkin.

So'zlar kishi ongining boshqa faktlari kabi mohiyatlarning umumiy tarzda qabul qilingan tizimidan tashqari alohida har bir kishi uchun xos ma'lum darajadagi shaxsiyatga oid mazmun, ahamiyat kasb etadi. Mohiyatlar bilan shaxsiyatga oid mazmunning nisbati A.N. Leontevning asarlarida chuqur tadqiq etilgan edi: «Shaxsiyatga oid mazmunlar mohiyatlardan farqli o'laroq... o'zining ortiqcha individualligiga, «nopsixologik» tarzda mavjudligiga ega emas. Tashqi sezuvchanlik subyekt ongida mohiyatlarni obyektiv olamning realligi bilan bog'lab turadi, shaxsiyatga oid mazmun esa ularni uning ushbu olamdagi hayoti realligi bilan, uning sabablari bilan bog'laydi. Hozirgi kunda nizolarni samarali bartaraf etish pedagogik jamoadagi psixologik muhitni emotsional yaxshilashga qaratilganligi, hamkorlikda ishlash samaradorligini oshirishni ta'minlash garovi ekanligi hech kimga sir emas. Shu boisdan pedagogik faoliyatdagi va umuman nizolar haqida zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lish foydadan holi bo'lmaydi. Nizolarni buzg'unchilik oqibatlarini muvaffaqiyatli hal etish ularni atroflicha o'rganishni talab etadi. Bunga esa jamoani yuqori darajada rivojlanganligi va iliq ijtimoiy psixologik muhitga ega bo'lishi orqali erishiladi. Dastlabki nizo haqidagi konsepsiyalar XIX-XX asrlarda vujudga kelib, asosiy nizo va uning yechimlarini topish yo'llari bo'yicha qo'yilgan qadamlar o'tgan asrning oxirlarida salmoqli o'rin tutadi.

Bugungi kunda psixologiya va ijtimoiy psixologiyada V.O.Ageev (1990), A.A.Bodalev (1983), V.I.Juravlev (1983), N.N.Obozov (1979), I.A.Kon (1997), Ya.A.Ansupov, A.I.Shipilov (2000), F.M.Borodkin (1989), A.K.Zaysev (1992,

1993), A.G.Zdravomislov (1995) va shu kabi boshqalarning tadqiqotlarida nizoning nazariy asoslari yoritiladi. Nizo (lotincha soʻzdan olingan boʻlib, “toʻqnashish”) – maqsad, qiziqish pozitsiyalar, fikrlar, qarashlar, kishilarning oʻzaro taʼsirlashuvidagi qarama - qarshi yoʻnalishlar boʻyicha toʻqnashishlardan iborat. Har qanday nizoning asosida qaysidir maʼnoda maqsad va manfaatlar oʻrtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar yotadi. Jamoadagi nizoni tabiatini yoritishdan oldin uning ikkita xarakterli jihatini inobatga olishimizga toʻgʻri keladi. Birinchisi nizo va ikkinchisi nizoli vaziyatdir. Koʻpgina adabiyotlar tahlili asosida nizo bilan nizoli vaziyat ajratib turuvchi quyidagi formulani eʼtiborga olish muhim deb hisoblaymiz: $Nizo + Muammo + Nizoli\ vaziyat + Nizo\ ishtirokchilari + Insident$. Bundan koʻrinyaptiki nizo nizoli vaziyat va u bilan bogʻliq boshqa bir qator ahamiyatga ega elementlarni birlashtirishini guvohi boʻlish mumkin. Pedagogik jamoadagi nizolarni tahlil etish va uni hal etish zarurat tugʻilganda nizo tarkibidagi har bir elementni oʻrnini aniq baholashga toʻgʻri keladi. Nizolarni vujudga kelishi va uni oldini olishda yuqorida taqdim qilingan formulaga alohida eʼtibor qaratish maʼqul. Psixologik muhit guruhiiy manfaatlarini qondirish, shaxslararo va guruhiiy nizolarni hal etishdagi amalga oshirilayotgan muloqotda vujudga keladi va namoyon boʻladi. Shu bois ushbu munosabatlar tafovutli xarakterga egaki, ular baʼzan doʻstona, hamkorlik, musobaqa yoki raqobat, hamjihatli yoki uyaltirib qoʻyish, qoʻpollik yoki ongli tartib-intizom tarzida gavdalanadi.

Psixologik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, taʼlim oluvchilarning oʻzaro taʼsirlashuvi koʻpchilik holatlarda toʻrtta asosiy taʼsir koʻrsatish usuli orqali amalga oshiriladi: eʼtiqod, taqlid, taʼsir, majburlash. Taʼkidlab oʻtilgan usullardan ham maʼlumki pedagogik jamoadagi oʻqituvchi va taʼlim oluvchilar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirlashuv formalarida ham ular oʻz aksini topishi tabiiy. Chunki baʼzi holatlarda, oʻqituvchi tomonidan berilayotgan topshiriq va vazifalarning berilishi taʼlim oluvchilarning dunyoqarashiga mos kelish va kelmasligiga qarab nizoli holatlarni vujudga kelishi tabiiydir. Agar oʻqituvchi shaxsi pedagogik jamaoda yetarlicha mavqeiga ega boʻlgan.

XULOSA

Nizo o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Nizo bu keng ma'noda va tor ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda nizo – bu jamiyatdagi yangi va eski qarashlar o'rtasidagi kurash deb qaraladi. Tor ma'nodagi nizo – bu bir muammoni yechishdagi har bir shaxsning o'z fikrini qattiq turib himoya qilishida yuzaga keladi. Nizo ijtimoiy psixologiyada qanday tushuniladi? Muomalaning buzilishi yoki psixologik jihatdan ichki ruxiy kelishmovchilikdir. Buni olimlar har sohada har xil tushunishadi. Masalan: G.Kovalev nizoga shunday ta'rif beradi: Nizo insonlar o'rtasida ijtimoiy va shaxsiy masalalarni yechishda vujudga keladigan holat, lekin har qanday qarshilik bu nizo bo'lavermaydi. Odamlar bir-birining fikri bilan kelishmasligi va o'zaro bahslashishi mumkin, har biri o'z fikrida qoladi, lekin baribir kelishib ishlashga ko'p hollarda majbur bo'ladi, qarama-qarshilik ba'zan yoqtirmaslik, emotsiya, tushunmaslik, ko'ra bilmaslik va boshqa sabablar nizoning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Nizo nafaqat qarama - qarshilik, shuningdek, o'ziga xos kurashish hamdir. Har ikkala tomon ham bunday holatda o'zlarini haq deb bilishadi va o'zaro kurashadi. Nizo bu qarama – qarshi dunyoqarashlar negizida yuzaga keladi. Nizoni albatta yechish kerak, chunki busiz hayot me'yorida davom etmaydi. Yuqorida aytib o'tganimizni tahlil qilib, psixologik nuqtai nazardan biz shunday ta'rif beramiz: “Nizo – bu shaxslardagi qarashlar, qiziqishlar o'rtasida qarama – qarshilik natijasida yuzaga kelgan psixologik holat bo'lib bu faqat shaxslarningbir-biri bilan hamkorlik jarayonida yuzaga keladi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bryazgunov I.P., Kuchma V.R. Sindrom defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu u detey. - M.: Institut psixoterapii, 1994. 43str.
2. Zavadenko N.N. Kak ponyat rebenka: deti s giperaktivnostyu i defitsitom vni-maniya. // Lechebnaya pedagogika i psixologiya. Pril. k. jurnal «Defektologiya». № 5. - M.: «Shkola – Press», 2000.112 s.

3. Goziev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi), Toshkent "O'qituvchi", 1994.
4. Goziev E. Umumiy psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi), Tashkent, 2010.
5. Ziyonet